

**O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA TARIXIY-MADANIY MEROS
OBYEKTLARINING MUHOFAZASI****Yo'ldoshev Dilshod Shuhratovich¹**¹ Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 1-kurs talabasi

ydilshod884@gmail.com

+99894 710 16 11

**MAQOLA
MALUMOTI:****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:**

Received: 28.12.2024

Revised: 29.12.2024

Accepted: 30.12.2024

KALIT SO'ZLAR:

tarixiy-madaniy
yodgorliklar, madaniy
meroslar, YUNESKO
Umumjahon madaniy
merosi, Madaniy meros
departamenti, O'zbekiston
Respublikasi
Konstitutsiyasi

Ushbu maqolada O'zbekistonda tarixiy-madaniy meros obyektlarining muhofazasi, uning shaharlari hamda madaniy meroslari xalqaro YUNESKO tashkilotiga kirishi, ushbu yodgorliklarni asrashda hukumat tomonidan chiqarilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar haqida so'z boradi.

KIRISH. Hozirgi kunda O'zbekistonda tarixiy-madaniy meros obyektlarining muhofazasi O'zbekiston xalqining umummilliy boyligi hisoblanadigan madaniy merosimizni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va undan foydalanish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga, "Boysun madaniy muhiti", "Shashmaqom musiqasi", "Navro'z", "Katta ashula", "Askiya", "Palov madaniyati va an'analari" nomzodlari Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga, Usmon Qur'oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar to'plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi ro'yxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida e'tirof

etilganiga yorqin misol bo'la oladi⁴⁸ Shu bilan birgalikda, moddiy-ma'naviy, tarixiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish uchun ushbu sohaga mas'ul organing tashkiliy-shtat tuzilmasi mazkur sohada davlat nazoratini samarali tashkil etish imkonini bermayapti. Mazkur sohada fundamental hamda ilmiy- amaliy tadqiqotlarni tashkil etishda ushbu sohaga tegishli bo'lgan fan va innovatsion texnologiyalar yutuqlaridan samarali foydalanmaslik natijasida qo'llaniladigan loyihalash, restavratsiya-tiklash ishlari moddiy-ma'naviy, tarixiy- madaniy meros obyektlarining noyobligini saqlab qolishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Moddiy-ma'naviy, tarixiy- madaniy meros obyektlarini himoya qilish, ilmiy o'rganish, ulardan oqilona foydalanish va yurtimizning sayyohlik salohiyatini oshirishda ularning o'ri va ahamiyatini oshirish hamda moddiy madaniy meros sohasidagi davlat nazoratini tubdan takomillashtirish maqsadida: O'zbekiston Respublikasining prezidenti tomonidan **“Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”** gi qaror qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi hamda uning mintaqalararo (mintaqaviy) davlat inspeksiyalari negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniy meros departamenti (keyingi o'rinlarda Departament deb yuritiladi) hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari tashkil etildi.

Departamentning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

moddiy madaniy meros, shu jumladan, arxeologiya merosi obyektlari, muzey ashyolari va kolleksiyalari hamda madaniy boyliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini yuritish, tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni aniqlash, ularni hujjatlashtirish va davlat hisobiga olish, moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari toifalari va qo'riqlanadigan tegralarini belgilash, shuningdek ulardan oqilona foydalanilishini ta'minlash;

tarixiy-madaniy va loyiha-smeta hujjatlarining ekspertizasini, moddiy madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy qimmati va noyobligiga asrashga doir ishlarni putur yetkazmagan holda amalga oshirilishi bo'yicha uzluksiz ilmiy-texnik nazoratni olib borish;

alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy va jahon madaniy merosi obyektlari jumlasiga kiritilgan hududlarda shaharsozlik va boshqa xo'jalik faoliyatlarini ularning

⁴⁸ <https://xs.uz/uz/post/moddiy-madaniy-meros-obyektlarini-muhofaza-qilish-sohasidagi-faoliyatni-tubdan-takomillashtirish-chora-tadbirlari-to'grisida>

tarixiy-madaniy muhiti, tabiiy landshafti va o'ziga xosligini saqlab qolgan holda olib borilishini muvofiqlashtirishdan iborat⁴⁹. Bundan tashqari O'zbekiston tarixiy yodgorliklarga boy va ma'naviy-madaniy qadriyatlar shakllangan mamlakat hisoblanadi. Shuning uchun ularni yanada yaxshiroq, xavfsizroq saqlash hamda kelajak yoshlarga taqdim etish maqsadida Konstitutsiyaning 49-moddasida **“Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir”**, degan konstitutsiyaviy norma belgilab qo'yilgan. Tarixiy yodgorliklar, madaniy yodgorliklar, muzeylar, shu jumladan tarixdan meros qolgan turli xil buyumlar, qo'lyozmalar, hujjatlar, arxiv ma'lumotlari tarixiy, ma'naviy, madaniy boyliklarimiz hisoblanadi. Konstitutsiyaning 49-moddasida ko'rsatilgan boyliklarni saqlashni ta'minlash maqsadida, mamlakatimizda yetarli huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bunga 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida”, “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida”gi qonunlarni ko'rsatish mumkin. Konstitutsiyadagi burchlarni va yuqoridagi qonunlar talablarini buzganlik uchun jinoyat va ma'muriy qonunchiligimizda yetarli darajada jazolar belgilangan⁵⁰. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarixiy, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni saqlashga alohida e'tibor berib kelmoqda. Konstitutsiya normasidan kelib chiqib, har bir fuqaro madaniy, tarixiy, ma'naviy yodgorliklardan o'zining turli ehtiyojlarini qondirishda foydalanar ekan, ya'ni atrofida sayr qilishi, suratga tushishi, tomosha qilishi va boshqa hollarda ularga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi, ularni saqlashi nafaqat konstitutsiyaviy burch, balki avlodlar oldidagi burch ekanligini unutmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://xs.uz/uz/post/moddij-madaniy-meros-obektlarini-muhofaza-qilish-sohasidagi-faoliyatni-tubdan-takomillashtirish-chora-tadbirlari-tog'risida>
2. <https://lex.uz/docs/-4113465>
3. Husanov, O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: H-89. Adolat. 2013. 149 bet

⁴⁹ <https://lex.uz/docs/-4113465>

⁵⁰ Husanov, O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: H-89. Adolat. 2013. 149 bet